

USMON AZIM SHE'RIYATIDA FOLKLOR MOTIVLARI

Ibragimova Dilovar Anvar qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi.

F.Sultonqulova

Ilmiy rahbar. PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17195517>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining badiiy adabiyotga ta'siri masalalari shoir Usmon Azim she'rlari misolida tahlil etiladi. Shoir she'rlarida xalq ertaklaridai uch yo'l motivi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qadriyat, badiiy so'z folklor, motiv, obraz, folklorshunoslik.

Har bir davr adabiyoti avvalo shu xalqning og'zaki ijod namunalarida aks etadi. folklorda o'z aksini topadi, badiiy sayqallanadi. Mumtoz adabiyotimizdan tortib, to bugungi kungacha yaratilayotgan asarlarda xalq og'zaki ijodining badiiy adabiyotga sezilib turadi.

Folklor namunalarini qadimdan xalq og'zaki ijodida ko'rishimiz mumkin. Millatning an'alarini yuzaga chiqarishda, mashhur shoir va yozuvchilarimiz hissasi ulkan. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodining asosini ham xalq og'zaki ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Uning ijodi xalq og'zaki ijodidan doimo suv ichgan, uni yozma adabiyotga yangicha ruh bilan sug'organ she'riyatdir. Shoir ijodining dastlabki yillaridayoq xalq og'zaki ijodining go'zal namunalari bo'lgan ertak, afsona va dostonlardagi folklor motivlariga murojaat qiladi. Shoir she'riyatining manbalaridan biri Ona tabiat bo'lsa, ikkinchisi xalq og'zaki ijodidir”. [5: 282.]

Shoir ijod olamiga kirib kelgan o'tgan asrning 70-80 yillarida Haq va haqiqatni so'zlay olish uchun folklor motivlaridan foydalanishi, yozma adabiyotning xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unligini ko'rsatishida, albatta, muallifning ma'lum maqsad-muddaolarini ifodalashda fol'klor an'alaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan edi. Shoirning “Uch dramatik ballada”, “Baxshiyona” turkumi – xalq dostonlari, “Chapani yoxud jaydari she'rlar” – xalq qo'shiqlari, “Alpomishning qaytishi” – “Alpomish” dostoni, “Tosh pari”, “Balladalar”iga ertak motivlari asos qilib olinadi. Shoir ba'zi she'rlarida xalqimiz donishmandligini ko'rsatuvchi noyob, chuqur mazmunga ega, serma'no ibora va maqollardan mahorat bilan o'rinli foydalanadi:

“Oh”imga to'ladi “oh”siz odamlar

Bir yo'lim zamindir, bir yo'lim osmon.

Ma'lumki, xalq ertaklarida **uch yo'l** motivi mavjud. Ertak motivi asosida yaratilgan “Balladalar”ining beshinchi balladasida ushbu motiv ijtimoiy masalalarni yoritish maqsadida ishlatiladi. Umuman, shoir ijodida **uch yo'l** asosiy motiv obraz sifatida davr ahvoli, lirik qahramon ruhiyatini tasvirlangan o'rinlarda keng foydalaniladi. “Rivoyat” she'rida uch yo'l motivi insonning umri, yashashi haqida chuqur falsafiy mushohadalarini ifodalaydi. Shoir mazkur motivni inson hayoti misolida ko'rarkan, inson yashab o'tgan umr borsa kelmasga qiyoslanadi:

Bu yo'l yolg'iz emas, uchga bo'lindi...

“Borsa kelmas” oldi mening ko'nglimni.

Garchi “Borsa, kelar” ayladi imo,

Menga buyurmagan qaytmoqni xudo.

“Yo kelar, yo kelmas” o'yindir mujmal,

Men birdan qismatni etmoqchiman hal.

Taqdirga tik qarash bandasin rasmi,

O'yla "Borsa kelmas" umrdir asli. [2: 111.]

Usmon Azim xalq og'zaki ijodining majoziylikka asoslangan turlaridan biri hisoblangan ertak motivlaridan unumli foydalanadi. Jumladan, "Baxt haqida ertak", "G'aroyib ajdarho", "Tosh pari" hamda shoir "Saylanma" siga kiritilgan o'n beshta ta balladaga ertak motivlari asos qilib olinadi. Shoirning "G'aroyib ajdarho" asarining syujeti xalq ertaklari syujetiga asoslangan bo'lsa-da, to'liq xalq ertaklari syujetini takrorlamaydi. Xuddi ertaklardagi kabi yurtga kelgan yovuz "qirq boshu", "qirq qorin" "bir yuho" har kuni "bir navniholqiz"ni yemish qilgan ajdarho timsoli podshohning yolg'iz qizi "xalqi uchun qurbon bo'lishga shay turgan" malikani "yemaydi". Aksincha xalq va yurt dardini o'ylab bolasini yovga jo'natgan podshohga tahsin aytadi: "Agar podshoh bo'lsa Xalqiga fido, Nima qila olar Uni ajdarho! Padaring qilmasdan O'ziga shafqat, Qizini yo'llabdi... Unga ming rahmat!" Ko'rinib turibdiki, mazkur asarda "g'aroyib ajdarho" timsolida Adolat ramzi ifodalanadi. Shoir she'rdagi "yov kelganda qochgan" xiyonatchi a'yonlar, saroy ahlining qilmishlarini qattiq qoralab, "har qanday musibatga dosh bergan "misgar u temirchi, Yukchi, obkash, aravakash, dukchi, korapdayu devdon, Bo'zchi-yu, bazzoz, masxaraboz, hattoki dorboz, hatto ko'zboylovchi, hatto gilamchi, Hatto sang'ib yurgan sho'rlik tilamchi..." kabi oddiy xalq vakillari borligini podshohga eslatish asnosida davrning ijtimoiy muammolarini ko'rsatib o'tadi. She'rdagi adolat, erk va haqiqat kabi ezgu g'oyalar ulug'lanib, jaholat, nohaqlik, riyo va munofiqlik qattiq qoralanadi. Barcha ertaklarning oxirida bo'lgani kabi shoir am mazkur eertagini Ezgulikning tantanasi bilan tugatarkan, qissadan hissa qilib, o'quvchisiga "xalq nima?" ekanligini uqtiruvchi savol qo'yadi. Shuningdek uning "Besehr ertak" she'rida ertaklardagi uch og'a-ini botirlar motiv obrazi ishtirok etadi.

Biz uch og'a-ini edik,

Qo'shchi edik mehnatkash. [4:40]

Usmon Azim she'riyati xalqimizning durdona ijod namunalarining yozma tarzda ishlangan ajoyib guldastasidir. Uning "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari asosida yozgan asarlari shoh asar hisoblanadi va folklorning eng ajoyib na'munalari sifatida olishimiz mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoir har bir fol'klor motivlaridan unumli foydalanadi.

Buni uning ijodining eng go'zal namunasi "Baxshiyona" turkumining o'ziyoq yorqin ifoda ettirib turibdi. Xulosa qilib aytganda, shoir ijodidagi folklor motivlarini o'rganish, tadqiq etish yozma adabiyot va og'zaki adabiyotning o'zaro bog'lik masalalarini hal etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 397.
2. Усмон Азим. Жимлик: назм, наср, драматургия. – Тошкент: Фафур Фулом, 2012. – Б. 111.
3. Усмон Азим. Бор экану, йўқ экан. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б. 32.
4. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1995. – Б.203.
5. Азимов У. Соғинч. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2007. – Б.40.
6. F Sultonqulova F. ON THE EXPRESSION OF FOLK SONGS IN THE CREATION OF USMAN AZIM //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 282-285.
7. Sultonqulova, F (2020). "METAPHORICAL IMAGES IN THE POETRY OF OSMAN AZIM", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. ICIPPS, p. 4, Jun. 2020. -b.

8. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorcal images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>.
9. Sultonqulova F.B. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA RUHIY-PSIXOLOGIK HOLAT IFODASIDA DETALNING O'RNI // Экономика и социум. 2024. №6-1 (121).633-635 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shukur-xolmirzayev-hikoyalarida-ruhiy-psixologik-holat-ifodasida-detalning-o-rni>